



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



INFOSTAT.UZ




Тошкент -2019



## Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

2019 yil yanvar-sentabr holatiga



**Davlat statistika qo'mitasiga 2019 yilning yanvar-sentabr holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan 1242 ta murojaatlar kelib tushgan.**

Ulardan, 87 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 230 ta Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 790 ta To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 135 ta Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.




## Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo`yicha)



- Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



*645 tasi (jamiga nisbatan  
52 %) Respublikaning ijtimoiy-  
iqtisodiy rivojlanish statistik  
ko'satichlari ma'lumotlarni  
taqdim etish yuzasidan*



*101 tasi (8.2 %) korxona va  
tashkilotlarning yagona davlat  
registr bazasiga kiritish,  
statistik kodlar berish  
masalasi yuzasidan*



*226 tasi (18.2 %) nafaqa  
hujjatlarini rasmiylashtirish  
uchun ish stoji, ish haqi  
to'g'risida arxiv  
ma'lumotlarini olish  
masalalari yuzasidan*



*95 tasi (7.6 %) statistik  
hisobotlarni to'ldirish  
va taqdim etish bo'yicha  
tushuntirish berish  
yuzasidan*



*110 (8.7 %) O'z faoliyatini  
amalga oshirish uchun  
amaliy yordam olish  
yuzasidan*



*16 tasi (1.3 %) Qo'mita  
vakolatlari, faoliyati  
bo'yicha ma'lumot  
olish yuzasidan*




*49 tasi (4 %) boshqa  
masalalar yuzasidan  
ma'lumotlarni tashkil  
etgan.*





# Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2019 yil yanvar-sentabr holatiga




Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 885 ta (o'tgan yilning shu davrida 859 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan 74 ta, Farg'ona viloyatidan 44 ta, Namangan viloyatidan 32 ta, Jizzax viloyatidan 30 ta, Samarqand viloyatidan 26 ta, Andijon viloyatidan 28 ta, Qashqadaryo viloyatidan 25 ta, Surxondaryo viloyatidan 17 ta, Xorazm viloyatidan 20 ta, Sirdaryo viloyatidan 19 ta, Navoiy viloyatidan 12 ta, Buxoro viloyatidan 15 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 13 ta va boshqa Respublikalardan 2 ta murojaatlar kelib tushgan.

## Murojaatlar turlari bo'yicha:

2019-yil yanvar-sentabr holatiga

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan  
murojaatlar:



**Tahlillarga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasiga murojaatlarning jamiga nisbatan 42%  
(522 ta) jismoniy shaxslardan va 58% (720 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga  
to'g'ri kelgan.**




## Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:



Yanvar-sentabr oylari holatiga

### Jismoniy va yuridik shaxslar

Jami:1242



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan murojaatlarning 1062 tasiga chora ko'rildi, 157 tasi tushuntirildi, 23 tasi ko'rib chiqilmoqda, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Eslatib o'tamiz:

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch kelsangiz yoki tahliliy ma'lumotlarni olishni hohlasangiz quyidagi raqamlarga murojaat eting:



• "Ishonch telefon"lari: (71) 230-81-80, 230-81-82



• Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 230-81-81



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.



• Pochta manzili - info@stat.uz

Bizning manzil: 100170, Toshkent sh,

Mustaqillik shoh ko'chasi, 63